

## O'QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MASALALAR YECHISH

**Kenjayev J.E**

*MI22A guruhi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda masalalar muhim ahamiyat kasb etadi, bu nafaqat hisob kitob, balki mulohaza qilish, mantiqiy fikrlash, izlanish kabi xislatlarni namoyon qiladi.*

Bilimlarni tekshirishda masala o'quvchi tafakkurining rivojlanganlik darajasini bilish, qo'yilgan vazifalarni bajarishda kerakli amallarni to'g'ri tanlay olish, hisoblash ko'nikmalari haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: axborot, axborot texnologiyalari, imitatsiya, integratsiya, kompetensiya, kompetentlik, elektron jurnal, modellashtirish, matnli masala, intellektual.

O'quvchilar ongida ilmiy tushunchalarni to'g'ri shakllantirish o'qituvchining asosiy vazifasi sanaladi. Amaliy tajribalarda egallangan nazariy bilimlar chuqurlashtirilishi bilan bir qatorda, to'g'ri yo'naltirilmasa noto'g'ri tasavvur hosil qilishi aniq. Yangi bilimlar o'quvchi tomonidan nafaqat ta'lim muassasasida, balki undan tashqarida egallagan bilimlar asosiga quriladi. Ta'lim jarayonida turli topshiriqlarni bajarish orqali xilma-xil ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalar amalga oshiriladi [1].

Hozirda yangicha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar jahonda barcha fanlarni o'qitishda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini qo'llash hamda shu orqali ta'lim sifatini ta'minlash, ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlarning amaliy tatbiqlari samaradorligini oshirish asosida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish kabi masalalarni qamrab olgan ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda [2].

Masalalar o'quvchini hayot, nazariya va amaliyot bilan bog'lash imkonini berish bilan o'quvchilarni hayot haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish va fikrlash doirasini yanada kengaytirish imkonini beradi va ular amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Masalalar yechish jarayoni o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHu sababli o'qituvchi matnli masala tarkibi haqida tasavvurga ega bo'lishi, uni bir necha usullar bilan yecha olishi muhim hisoblanadi. Masalalarni mustaqil ravishda qo'llash o'quvchilarga dasturdagi materiallarni ongli qabul qilish, mustahkam bilimlarni egallash, maktab o'quvchilarining fikrlash faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi [7].

Bilimlarni tekshirishda masala o'quvchi tafakkurining rivojlanishini bilish, kerakli amallarni to'g'ri tanlash, hisoblash ko'nikmalari haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Muammoli vaziyatdan matematik masalaga o'tiladi. Matnli masalani yechish uchun avval matnni yaxshilab o'qib, undagi hayotiy muammo tahlil qilinadi. Mulohaza yuritish orqali masala sxema va matematik belgilar yordamida ifodalanadi hamda matematik masalaga olib kelinadi (1-rasm). SHundan so'ng, masalani yechishga kirishiladi.

SHuningdek, o'quvchilarda axborotlar va ularning manbalari bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim sohasi uchun qator imkoniyatlarni taqdim etadi.

1-masala. O'quvchi yangi o'quv yili oldidan do'kondan narxi 30000 so'm bo'lgan bitta sumka, narxi 900 so'm bo'lgan 20 ta daftar, har biri 1100 so'm bo'lgan 3 ta ruchka, narxi 10000 so'm bo'lgan 2 ta rangli qalamlar to'plami sotib oldi. Bu ma'lumotlar asosida jadval tuzing. Jadvalda har bir o'quv qurolining narxi, miqdori, qiymati va jami o'quv qurollari uchun necha so'm sarflangani aks etsin.

Masalani yechishda o'quvchi informatika fanidan o'tilgan "Jadvallar bilan ishlash" mavzusiga tayanadi[6].

Yechish. Jadvalni quyidagicha tasvirlaymiz va berilgan ma'lumotlar bilan to'ldiramiz. Jadvalning har bir qatoridagi o'quv qurollarining bir donasi narxini, ularning miqdoriga ko'paytirib, shu qatorning oxirgi ustuniga yozamiz. Bu bilan har bir o'quv quroliga jami necha so'm to'langanligini topishimiz mumkin.

1-jadval

№	O'quv qurollari nomlari	Bir donasining narxi	Miqdori	Qiymati
1.	Sumka	30 000	1	
2.	Daftar	900	20	
3.	Ruchka	1 100	3	
4.	Rangli qalamlar	10 000	2	
	Jami to'langan pul	-	-	

So'ng esa, oxirgi ustundagi hamma sonlarni qo'shib, yig'indini oxirgi ustunning oxirgi qator bilan kesishgan joyiga yozamiz. Bu son o'quv qurollari uchun to'langan jami pulning miqdorini bildiradi.

2-jadval

№	O'quv qurollari nomlari	Bir donasining narxi	Miqdori	Qiymati
1.	Sumka	30 000	1	30 000
2.	Daftar	900	20	18 000
3.	Ruchka	1 100	3	3 300
4.	Rangli qalamlar	10 000	2	20 000
	Jami to'langan pul	-	-	71 300

Turli masalalarni yechish orqali o'quvchi axborotlarning turli ko'rinishlaridan foydalanadi.

O'quvchi o'ziga qulay usulda masalani yechish jarayonida uning grafigini ham tasvirlash imkoniga ega bo'ladi. SHu bilan bir qatorda mavzuga oid tayanch so'zlarni o'zbek, rus, ingliz tilida ham berish barobarida o'quvchini xorijiy tillardan biriga bo'lgan qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirgan bo'lamiz. CHunki dars jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanar ekanmiz, albatta undagi dasturlar bilan ishlash uchun xorijiy tillardan (rus, ingliz) birini bilish lozim bo'ladi[4].

Matematik masalalar sodda va tarkibli masalalarga ajratiladi. Sodda masalalar bitta amal bilan yechish mumkin bo'lgan masalalar jumlasiga kiritiladi. Bir nechta sodda masaladan tuzilgan va shu sababli ikki yoki undan ortiq amal yordamida yechiladigan masalalar tarkibli masalalar deyiladi[6]. Masalalarni yechish usullari turlicha bo'ladi. Ulardan asosiylari: arifmetik usul (masalani savollar tuzib, izohlab, ma'lum mulohazalarga asoslanib yechish); algebraik usul (masalani uning mazmuniga mos tenglama tuzib yechish). Masala yechishda chizmalardan, geometrik, fizik tushunchalardan foydalanish ham yechimga tezroq olib kelishi mumkin. Masalani tenglama tuzib yechish allomalarimiz asarlarida „al-jabr val-muqobala» usuli deb atalgan[5].

Topshiriqlarni bajarishda o'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini eshitishi va topshiriqni mustaqil bajarishlariga imkon yaratishi kerak, kompetensiyaviy ta'limning maqsadi ham shundan iborat.

#### **ADABIYOTLAR:**

1.Малкин И.И. Рациональная организация самостоятельных работ учащихся. – / Ж. «Народное образования» 1966 .. № 10. С. 30-32.

2.Mamatqulov D. Mafkuraviy kompetentlilik tushunchasi va uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2017. – №1. – B.6-10

3.Kamaltdinova D. T., Sayfurov D. M. "Informatika va axborot texnologiyalari": umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik: - Toshkent: "Tasvir", 2020. - 112 b.

4. Xaydarov B.Q. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1-qism. TOSHKENT- 2020

5.Mirzaahmedov M.A., Rahimqoriyev A.A., Ismailov Sh.N., To'xtaxodjayeva M.A. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6- sinfi uchun darslik. "O'qituvchi" Nashriyot matbaa ijodiy uyi Toshkent -2017.

6.Abdullayeva S.M. "5-6-sinflarda matematika fanini o'rganish jarayonida axborot texnologiyasidan foydalanishni takomillashtirish". Инновационное развитие науки и образования. Павлодар, Казахстан 2021

7.Abdullayeva S.M. "Axborot texnologiyasidan foydalanish yuqori samaradorlik garovidir". "Техника ва технологик фанлар соҳаларининг инновацион масалалари" мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани. 2020 йил сентябрь.